

«ODOBNOMA»

fanini 4-sinfda o'rganish bo'yicha
o'quv-metodik qo'llanma
(ish daftari)



Majburiy
bepul nusxa

TOSHKENT
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»
2013



UO'K: 177(072)
KBK 74.200.51
O-24

— *Маънавий таълим*

«Odobnoma» fanini 4-sinfda o'rganish bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma:
ish daftari / tuzuvchi M. U. To'ychiyeva; mas'ul muharrir H. J. Dalimov. -
Toshkent: «Yangiyo'l poligraf servis», 2013. - 96 b.

ISBN 978-9943-4222-3-0

UO'K: 177(072)
KBK 74.200.51

Tuzuvchi: To'ychiyeva M.U.

Mas'ul muharrir:

H.J. Daminov – XTV ma'naviy-ahloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig'i.

Ilmiy-uslubiy maslahatchi:

A. Xolbekov – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

N. Ismatova – Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i;

M. Panjiyeva – Respublika ta'lim markazi bosh metodisti.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanma 4-sinf o'quvchilarining «Odobnoma» fanini o'rganishlarini osonlashtirish uchun mo'ljallangan. Unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidagi fikr va g'oyalar singdirilgan.

Shartli belgilar:



— mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar



— qalamlar yordamida bajariladigan topshiriqlar




— yozma tarzda bajariladigan topshiriqlar



— krossvord va rebus topshiriqlar



— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan olingan fikrlar.



© «Yangiyo'l poligraf servis», 2013

10 47826
391



MUNDARIJA

1. Ona mehri	
1-DARS	6
2. Ota jasorati	
2-DARS	9
3. Farzand istiqboli	
3-DARS	12
4. Vaqt – bebaho boylik	
4-DARS	15
5. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz	
5-DARS	18
6. Yaxshilik – yuksak fazilat	
6-DARS	21
7. Andisha	
7-DARS	24
8. Xushmuomalalik	
8-DARS	27
9. O'z qadrin bilmagan, o'zganing qadrin bilmas	
9-DARS	30
10. Navoiyning odobi	
10-DARS	33
11. Konstitutsiya – asosiy qonunimiz	

11-DARS	36
12. Adolatparvarlik – ezgulik asosi	
12-DARS	39
13. Ma'naviy tarbiya	
13-DARS	41
14. Illatlardan qutulish – mardlik belgisi	
14-DARS	44
15. Takrorlash	
15-DARS	47
16. Illatlardan qutulish – mardlik belgisi	
16-DARS	50
17. Nafsni yengish zarurati	
17-DARS	53
18. Istiqlol bergan buyuk ne'matlar	
18-DARS	56
19. Temuriylar tarixi davlat muzeyi	
19-DARS	59
20. Ajdodlar xotirasiga hurmat	
20-DARS	62
21. Ziyorat odobi	
21-DARS	65
22. Yurt tinchligi	
22-DARS	68
23. Millatlararo totuvlik	

23-DARS	71
24. Oila – muqaddas qo'rg'on	
24-DARS	74
25. Milliy meros nima?	
25-DARS	77
26. Bebaho yodgorlik	
26-DARS	80
27. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish	
27-DARS	83
28. Bayramlarimiz	
28-DARS	86
29. Bobolarimiz, momolarimiz kuylagan qo'shiqlar	
29-DARS	89
30. Musiqa madaniyati	
30-DARS	91

1. ONA MEHRI

1-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- Onalarimizning uy-ro'zg'ordagi vazifalarini yozib bering. _____

- Onalarning mehnatini qadrlash, ularni e'zozlash uchun nimalar qilishimiz kerakligini yozing _____



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ushbu gaplarning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Bu yorug' olamda _____ bittadir.
Bittadir dunyoda Ona degan nom.
- 2) Onalarimiz bizni bir parcha etdan katta qilib, qatorga qo'shadilar, oq yuvib, oq taraydilar, doimo boshimiz uzra parvona bo'ladilar, bu _____dir.
- 3) Onalarning _____da haqlari juda ko'p. Garchi onangni boshingda ko'tarib, _____ga olib borib kelsang ham, uning bir kechalik uyqusini buzib senga aytgan _____sining haqini uzolmaysan, deydi xalqimiz.

Foydalanish uchun so'zlar: alla, ona mehri, farzand, Vatan, haj.



3.






Oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash zarur.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini tushunib oling.
- 2) Ota-onani hurmat qilish haqida maqollar keltiring. _____



4. Bo'sh kataklarga mos harflarni qo'yib, krossvordni to'ldiring. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarni izohlab bering. Ajratilgan kataklarda eniga hosil bo'lgan iboralarning bog'liqligini tushuntiring.



2. OTA JASORATI

2-DARS




? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlarning ota jasorati tushunchasiga qanday aloqasi bor?
- Otalarimizning shunday ishlariga javoban siz nima ishlar qilishingizni yozing. _____

- Otalarimizning oiladagi vazifalarini yozing. _____

-
-
- Ularning qaysi xususiyatlari sizga yoqishini yozing. _____

-
-
- Siz otangiz bilan qanday mavzularda suhbatlashasiz? _____
-
-



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'miga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Mardonavor ish, harakat, mardlik, botirlik, dovyuraklikka _____ deyiladi.
- 2) Jasoratning _____ bo'lmaydi.
- 3) Jur'at kishining _____ iga, qanday tarbiya topganiga bog'liqdir.
- 4) O'zbek xalqida qadim-qadimdan oila boshlig'i _____ hisoblanadi.

Foydalanish uchun so'zlar: jasorat, ota, vijdon, katta-kichigi.



3.




Bolaning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, atrofdagilarga bo'lgan munosabati kundan kunga ortib boradi.

Prezidentimizning ushbu fikrini izohlab bering.



4. Bo'sh kataklarga mos harflarni qo'yib, krossvordni to'ldiring. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarga va ajratilgan kataklarda eniga hosil bo'lgan iboraga izoh bering.



3. FARZAND ISTIQBOLI

3-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlarda kimlar tasvirlangan? _____
- Katta yutuqlarga erishish uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz? _____
- Sizning qanday buyuk orzularingiz bor? _____
- Sizning hayotdagi maqsadingiz nima? _____



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ushbu gaplarning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ bu kelgusi hayot, kelajak demakdir.
- 2) «Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki _____, _____ jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim», – deydi hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov.
- 3) Yurtimizning har bir farzandi _____ imizning qadriga yetishi, uni asrashi, u bergan imkoniyatlardan to'la foydalanishi hamda xalqimizning munosib _____ lari bo'lib yetishishlari lozim.
- 4) Har bir ota-ona farzandiga _____ tilaydi.

Foydalanish uchun so'zlar: farzand, istiqbol, istiqlol, bilimdon, ma'naviy, baxtli kelajak.




Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahondagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'a-yib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini ustozingiz yordamida izohlab berishga harakat qiling.
- 2) Prezidentimizning «Vatanimiz kelajagi farzandlarimizga bog'liq» degan fikrini qanday tasavvur qilasiz?



4. Bo'sh kataklarga mos harflarni qo'yib, krossvordni to'ldiring. Ajratilgan kataklarda eniga hosil bo'lgan so'zga tarif bering.



5. Poytaxtimiz Toshkent shahrida qad ko'targan «Yoshlar ijod saroyi» haqida yozing.

4. VAQT – BEBAHO BOYLIK

4-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlardan nimani angladingiz? _____

- Qaysi rasmdagi bolalar vaqtning qadriga ko'proq yetayotganini yozing? _____

- Siz vaqtningizni qanday rejalashtirasiz?
- Vaqtning qadriga yetish uchun qanday ishlarni bajarishingizni yozib bering. _____



2.



Ezgu maqsadlarga har bir daqiqadan unumli foydalanib, faqat tinimsiz mehnat orqaligina erishish mumkin.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini izohlab berishga harakat qiling.
- 2) Vaqt qadriga yetish ham inson tarbiyasiga xos ekanligi haqida gapirib bering.



3. Moslarini toping va maqollarni to'ldiring. Ularni izohlab bering.

Vaqtning ketdi –

Suv toshni kemirar

Vaqt –

qilichingni toshga chop

Vaqt tog'ni yemirar,

g'animat

Vaqt o'tgandan keyin,


naqdning ketdi

4. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Eng qimmatli boylik _____ dir.
- 2) Fursatdan yaxshi foydalansangiz _____ lar topiladi, vaqtni bekor o'tkazish oltinlarni qo'ldan boy berishdir.
- 3) _____ vaqtni qaytarib bo'lmaydi.
- 4) _____ bolalar vaqtlarini bekor o'tkazmaydilar.
- 5) _____ larni ulug'likka eltgan narsa ham vaqtdan unumli foydalanish bo'lgan. _____ ni baxtli qiluvchi va umrini bezatgan ham vaqtdir.

Foydalanish uchun so'zlar: inson, oltin, vaqt, donishmand, aqli, o'tgan.

5. Bo'sh kataklarni to'ldiring va bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarni izohlab bering. Eniga hosil bo'lgan maqolni tushuntirib bering.



5. TILGA IXTIYORSIZ – ELGA E'TIBORSIZ

5-DARS




? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmdagi qaysi bola so'zlashuv odobini yaxshi bilmaydi? Nima uchun? _____

- Bolalarni beodoblarcha gapirishi sabablarini yozing.

- Odobli bolalar so'zlashuvining qanday qoidalariga rioya qilishlari zarurligini yozing. _____

- Siz so'zlashuv odobiga amal qilish uchun nimalar qilasiz?





2.



O'zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi.

Prezidentimizning ona tilimiz haqida g'urur va iftixor bilan gapirayotganining boisi nimada deb o'ylaysiz?



3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ushbu gaplarning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ – insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi, insonlarning bir-biri bilan doimiy fikr almashishiga xizmat qiladigan ilohiy ne'mat.
- 2) Bilimli kishi nimalarni so'zlaydi, sen unga quloq sol, adablar boshi tildir, uni _____ zarur.
- 3) O'ylab so'zlagan kishining so'zi _____ dir, o'rinsiz ko'p vaysagan til shafqatsiz _____ dir.

Foydalanish uchun so'zlar: yov, to'g'ri, til, tiymoq.




4. Savollarga javob bering.


- 1) Ushbu fikrning muallifini ostiga yozing. Matnni o'qib uni izohlab bering:
«Til va ko'ngil xo'broq a'zodir insonda. Til nutqning asosidir, agar nutq nopisand (noo'rin) zohir bo'lsa, tilning ofatidir». _____

2) Ona tilimizning ko'rki, kuch-qudratini jahonga tanitgan bobokalonlarimizdan bilganlaringizni yozing _____

3) Vatanimizda o'zbek tiliga davlat maqomi qachon berilgan? _____



5. Sxemani to'ldiring.



6. YAXSHILIK – YUKSAK FAZILAT

6-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlardagi bolalar qilayotgan ishlarining yaxshilikka qanday aloqasi bor?
- «Yaxshilik – yuksak fazilat» deganda nimani tushunasiz?
- Yaxshilik qilish uchun insonga qanday fazilatlar zarurligini yozing. _____
- Yomonlik qilishdan nima foyda ko'rasiz?
- «Yaxshilik qo'lingdan kelmasa, yomonlik ham qilma» maqolni tushuntirib berishga harakat qiling.

2. Moslarini topib birlashtiring. Hosil bo'lgan iboralarni izohlab bering.

Yaxshi bo'lsang,

doridan yaxshi

Yaxshi gap

ko'ngil podshosi

Yaxshi so'z

noming chiqar



3



Dono xalqimiz, g'araz va hasad bilan yashaydigan kimsadan o'zi asrasin, deydi. Bag'rikeng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g'am-u tashvishi bilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha, boshiga ko'taradi.

- 1) Xalqimiz nega yomon odatli kishilardan o'zi asrasin deb ta'kidlagan?
- 2) Yaxshi kishilarning hayotda hurmat-e'tibor topishini qanday tushunasiz?



4. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ insonlarning bir-biriga mehr ko'rsatishi, o'zaro yordam, g'amxo'riigi va shirin so'zligida namoyon bo'ladi.

- 2) Yomon soʻzdan faqat _____ lar kelib chiqadi.
- 3) Suhbatdoshlarning eng yaxshisi _____ va koʻngliga maʼqul _____ lardir.
- 4) Yaxshilarni _____ i bilan his etadigan inson shirinsoʻz, xushfeʼl, _____, saxiy, _____, bilimdon, tiliga eʼtiborli, yuksak odobli boʻladi.

Foydalanish uchun soʻzlar: yaxshilik, insofli, muloyim, xushfeʼl, qoʻshni, qalb, yomonlik.

-
5. Boʻsh kataklarni toʻldiring. Eniga hosil boʻlgan soʻzlarning boʻyiga joylashgan soʻzlar bilan qanday bogʻliqligi bor?

(a)

								I
M								N
U				SH	S	B		
L		S	X	I	O	I		
O		A	U	R	F	L		
I	Q	I	F	N	I	M	A	
M	L	Y	E	S		D	M	
	L			'	O'	O	T	
	I		L	Z		N	A	
							R	

(b)

								Q	
A		N	O'				Y		
Y		O	P			O	D		
O	D	A	L	O	G'	L	U		
R	O	R			D	O	O	L	
		B	D		O	N	Z	F	
		S			N	C	H	O	A
		I				I	R	T	
		Z							

7. ANDISHA

7-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Siz ota-onangiz, ustozlaringiz noo'rin ishlaringiz uchun ba'zida koyib qolishsa, qanday yo'l tutasiz?
- «Andishali kelin» iborasini eshitgansiz, unga mos keladigan odatlarni yozing. _____

- Ota-onaga, ustozga tik qarash odobsizlik ekanligi haqida gapirib bering.
- Andishali bo'lish nimalarga bog'liqligini yozing. _____



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

1) _____ inson har bir so'zning oqibatini o'ylab, yuz-xotir qilib aytadi.

2) Inson befahm, andishasiz bo'lsa, u _____ ga aylanadi.

3) O'z _____ ini bilib, boshqalar aybini qidirmaydigan odam xo'b yaxshi, andishali odamdır.

Foydalanish uchun so'zlar: ayb, andishali, dilozor.



3.




Yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

1) Ezgu odatlarni, xususan, andisha tushunchasini bolalarga singdirishda oilaning roli katta ekanligini tushuntirib bering.

2) «Andisha» so'ziga ma'nodosh so'zlarni yozing.





4. Sxemani to'ldiring.





5. Bo'sh kataklarni to'ldiring. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarni izohlab bering. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarning «eniga hosil bo'lgan so'z» negizida yotadi gaplarini yozing.



6. Moslarini toping va maqollarni to'ldiring.

Andishaning otini

uyal

Uyalmagandan

uyatsizga – har kun hayit

Uyatliga – uch kun hayit,

qo'rqoq qo'yima

8. XUSHMUOMALALIK

8-DARS




1. Savol va topshiriqlar:

- Xushmuomalalikni rasmlar asosida tushuntiring.
- Xushmuomalalikka misol yozing. _____


- Xushmuomalali bo'lish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
- Xushmuomalalik hayotda qachon va qayerda kerak bo'lishini yozing. _____

- «Xushmuomalalik – yaxshilarning ziynati» degan iborani izohlab bering.

- Bilimli, dono, baxtli bo'lish uchun inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz? Ularni yozing. _____



2. Sxemani to'ldiring.






3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ muomala inson qadrini pasaytirib, insonni qo'lga kiritgan _____i, obro' va e'tiboridan mahrum etadi.
- 2) _____ inson o'zini va o'zgalarni qadrlaydi.
- 3) Birovni birovning oldida _____ qilma.
- 4) _____ – bu odobsizlik.

Foydalanish uchun so'zlar: qo'pol, hurmat, xijolat, qo'pollik, xushmuomala.

4. Bo'sh kataklarni to'ldiring. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlar orasidan eniga hosil bo'lgan so'zga ma'nodoshlarini ayting.



9. O'Z QADRIN BILMAGAN, O'ZGANING QADRIN BILMAS

9-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- O'z qadrini bilish deganda nimani tushunasiz?
- Rasmlardagi bolalarning qaysilari o'z qadrini biladi deb o'ylaysiz? Qaysilari aksincha? Nima uchun?
- Insonning hurmati, obro'si, izzati kabi tushunchalarini tushuntirib berishga harakat qiling.
- O'zining va atrofdagi insonlarning qadriga yetish uchun nimalar qilish zarurligini yozing. _____

2. Moslarini topib chiziqcha bilan birlashtiring. Hadis va hikmatlarni tushuntirib bering.

Boshqalardagi kamchilikni ko'rib,

ular bilan xuddi shunday muomalada bo'ling.

Kimki birovning qadriga yetmasa,

o'zini tuzatgan odam saodatlidir.

Odamlar sizga qanday muomala qilishini xohlasangiz,

boshqalar ham uning qadriga yetmaydi.

3. Sxemalarni to'ldiring.


a) Inson o'z izzatini bilishi uchun quyidagilar talab qilinadi

o'zqalar izzatini bilish

muomalada o'ylab qapirish

b)

Insonni elda aziz qiladigan fazilatlar



4. Bo'sh kataklarni to'ldiring va bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarni izohlab bering. Ajratilgan kataklarda eniga hosil bo'lgan iborani tushuntirib bering.

				F					D	
P				A					A	
R				R				O	S	
E	D			Z		M	O	B	T	
Z	U	U		A		A	D	O	U	O
D	Y	T	L	D		O	M		X	L
E	O	O	A			L			O	A
N		Z	M						N	
T										

10. NAVOIYNING ODOBI

10-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- 1-rasmda qaysi bobokalonimiz tasvirlanganini yozing. _____
- Ushbu bobokalonimizning qanday fazilatlariga ega bo'lganligini yozing. _____

- Bu bobokalonimizning qanday mashhur asarlarini bilasiz? _____
- 3- va 4-rasmlarda nimalar tasvirlangan? Navoiy bobomizning ulug'lanishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
- Bobokalonimizning hikmatli so'zlaridan bilganlaringizni yozing. _____

2. So'zlarga mos keladigan izohlar topib, bir xil rangga bo'yang.

Avliyo

podsho, shoh

Mutafakkir

dunyoning oddiy odamlar his etmaydigan sir-sinoatlarini teran anglagan, hayotning qanday kechishini oldindan ko'ra bilgan zot

Sulton

aql-tafakkuri bag'oyat yuksak, hayotdagi eng murakkab masalalarga ham javob topib, ularni oqilona hal qila oladigan o'ta donishmand kishi



3.



«Agar Alisher Navoiyni avliyo desak – u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak – mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak – shoirlarning sultonidir».

Prezidentimizning Navoiy bobomiz haqidagi fikrlarini ustozingiz yordamida tushuntirib berishga harakat qiling.



4. Moslarini topib, chiziqcha bilan birlashtiring. Navoiy bobomizning hikmatlarini izohlab berishga harakat qiling.

Sihat tilasang – ko'p yema,

yaxshi so'z – muxtasar

Chin so'z – mo'tabar,

yomonlik ham qilma

Yaxshilik qila olmasang,

inson desa bo'lur

O'z puku ko'zi pokni

izzat tilasang – ko'p dema



5. Navoiyning odobidagi uch narsa haqida yozing.

11. KONSTITUTSIYA – ASOSIY QONUNIMIZ!

11-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- 1-rasmda qanday kitob tasvirlangan? U haqida nimalarni bilasiz?
- 2- va 4-rasmlardan insonning qanday huquqlari borligini bilish mumkin?
- «Konstitutsiyamiz – asosiy qonunimiz» deganda nimani tushunasiz.
- Mehnat qilish huquqi haqida gapirib bering.
- Tarixiy obidalarimizni asrab avaylash haqida Konstitutsiyamizda nimalar aytilgan?
- Yurtimiz tabiatini, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylash burchimiz ekanligini tushuntirib bering.



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

1) Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida 8-dekabr – _____ bayrami deb e'lon qilindi.

2) O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi _____ oltita _____, _____, 26 ta _____ hamda 128 ta _____ dan iborat.

3) _____ o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab ijtimoiy adolat va qonuniylik asosida amalga oshiradi.

4) Konstitutsiyamiz « _____ » deb ham ataladi.

Foydalanish uchun so'zlar: bo'lim, muqaddima, Adolat qomusi, umumxalq, bob, davlat, modda.




3. Krossvordni yeching.

1. Barchamiz uchun majburiy bo'lgan qoidalar.

2. Milliy bayramlarimizdan biri.

3. Sizga biror narsani o'rgatuvchi shaxs.

4. Davlatimiz tili.





4. Konstitutsiyamizdagi moddalardan qaysilarini bilasiz? Ular haqida o'z fikrlaringizni yozing.

12. ADOLATPARVARLIK – EZGULIK ASOSI

12-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlarda kimlar va nimalar tasvirlanganini yozing.

- Adolatparvarlikka tarozining qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?
- Qonun deganda nimani tushunasiz? 4-rasmda qanday qonun hujjatlari tasvirlangan? _____
- «Siz har bir ishda vijdongizga quloq soling» degan gapni qanday tushunasiz?
- Bobokalonimiz Amir Temurning «Kuch – adolatdadir» degan iborasini sharhlab berishga harakat qiling.



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ odilona va xolisona ish tutishdir.
- 2) Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz adolatni ulug'lab, uni _____ deb baholaganlar.
- 3) Kechira olishlik – _____, kechira bilmaslik – _____ sanaladi.
- 4) _____ adolat tarafdori bo'lish, adolat va haqqoniyat uchun kurashuvchi bo'lish demakdir.

Foydalanish uchun so'zlar: vijdon amri, mardlik, adolatparvarlik, adolat, nomardlik.



3. Ushbu matnlarni o'qing va ularning mualliflarini matn ostiga yozing. Matnlarni izohlab bering.

- 1) «Adolat insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim».
-

- 2) «Inson ochlikka, yo'qlikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Adolat yo'q joyda taraqqiyot yo'q».
-

13. MA'NAVIY TARBIYA

13-DARS





1. Savol va topshiriqlar:

- Tarbiya deganda nimani tushunasiz?
- 1-rasmga ko'ra oiladagi tarbiya tushunchasini izohlab bering.
- 2- va 3-rasmda tasvirlangan tarbiya o'choqlarining nomini yozing. _____
- Mahalladagi tarbiya deganda nima ko'z oldingizga keladi? Sizingcha mahalladoshlarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari qanday bo'lishi kerak?
- Yuqoridagi tarbiya maskanlarining bir-biri bilan mustahkam aloqasi bola tarbiyasida juda muhim ekanligi haqida gapirib bering.



2. Sxemani to'ldiring.

Ma'naviy tarbiyadagi ikki muhim jihat





3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

1) Milliy qadriyatlarimizning mag'zida _____ yotadi.

2) Xalq fazilatli odamlarni _____ odam, illatli odamlarni _____ odam deydi.

3) _____ deganda faqat yaxshi xususiyatlar, _____ deganda faqat yomon xususiyatlar tushuniladi.

Foydalanish uchun so'zlar: fazilatlar, ma'naviy tarbiya, bema'ni, illatlar, bama'ni.



4. «Ma'naviy tarbiya» haqida tushunganlaringizni yozing.




5. Jadvalni to'ldiring.

Insonga xos fazilatlar
sabr-qanoat

14. ILLATLARDAN QUTULISH – MARDLIK BELGISI

14-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlarning qaysilarida yomon odatlar ko'rsatilganini yozing.
- Illat deganda nimani tushunasiz?
- Qanday odatlar zararli hisoblanishini yozing. _____
- Bunday illatlar insonda qanday paydo bo'ladi?
- Turli illatlar yomon oqibatlariga olib kelishi haqida gapirib bering.
- Siz bu illatlarga yaqinlashmasligingiz uchun nima ishlarni amalga oshirishingiz kerak?

2. Moslarini topib birlashtiring. Maqollarni izohlab bering.

Go'sht shirinligini
tashlasa,

Ko'p-ko'p yegan
ozadur

Oz-oz yegan mazadur,

qimorga ketar

Mol semirsa – foyda,

O'g'ri o'g'riligini
tashlar

Qimordan kelgan

Odam semirsa –
ziyon

3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ o'yiniga muhtalo bo'lsang, izzat va jon mulkiga qiron keltirasan, oz fursatda bor-yo'g'ingni, hurmat va obro'yingni qo'ldan boy berasan.
- 2) _____ birovning moliga ko'z tikish, nopoklikdir.
- 3) _____ odamni mehnatdan bezdirib, kasallik keltiradi, tabiatini buzib, muhtojlikka olib keladi.
- 4) _____ – qancha yolg'on-yashiq so'zlar aytib, boshqalarni aldab, o'zi istagan ishni qilishdir.

5) _____ yaroqli narsalarni hech narsaga arzimaydigan yaroqsiz holga keltirishdir.

Foydalanish uchun so'zlar: Yalqovlik, qimor, o'g'irlik, ziyonkorlik, hiylagarlik.

4. Moslarini toping va mos ranglarga bo'yang.

dangasalik

tamaki chekish

oz gapirish

giyohvandlik

nafsni tiyish

qalbni pok tutish

qo'pollik

ozodalik

kamtarlik

yalqovlik

rostgo'ylik


odoblilik

fazilatlar

illatlar

15. TAKRORLASH

15-DARS

 1. Savollarga javob yozing.

1) «Ona mehri» deganda nimani tushunasiz?

2) Ota jasoratiga misollar yozing.

3) Farzandni nimalarga qiyoslab gapirishadi?

4) «Farzand istiqboli» deganda nimani tushunasiz?

5) «Qonun» so'zini izohlab bering.

6) «Xushmuomalalik» deganda nimani tushunasiz?

2. Moslarini toping va belgilang. Maqollarni izohlab bering.

Manmanlikni netarsan, 1

d ketiga qaytmas

2 Yo'qolgan oltin topilar

obro'yingdan ketarsan a

Vaqt 3

i Dononing suhbati

4 Buloqning suvi tiniq,

Er aytganidan qaytmas sh

Saxiy berganini aytmas, 5

Boqiylik – quvnoqlikda a

6 Baraka – inoqlikda,

n Yo'qolgan vaqt topilmas

1	2	3	4	5	6

Hosil bo'lgan so'zni tushuntirib bering.

3. Bo'sh kataklarni to'ldiring. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlar orasidan eniga hosil bo'lgan so'zga mantiqan yaqinlarini ajrating.

a)

A	V	I	I	G'	
Y	O	K	N	V	
F	N		A	O	
I	CH				
Y					
A					
T					

a) _____

b)

	V			O	V
	I		S	D	A
X	J	Q	O	D	Q
L	O	N	U		
Q	N	U	Q		
			N		

b) _____

4. «Yaxshilik» mavzusida maktab hayotiga oid hikoya yozing.

16. ILLATLARDAN QUTULISH – MARDLIK BELGISI

16-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlardagi bolalarning qaysilari nojo'ya ish, qaysilari foydali ish bilan band ekanligini yozing. _____
- O'rtoqlaringiz bilan urushishdan, ularning dilini og'ritishdan nima naf? Ularni xursand qilish ko'nglini ko'tarish do'stlikdan nishona emasmi? Javobingizni asoslab bering.
- Uyingizda, maktab va sinf xonalarida buyumlarni asrab-avaylash ulardan to'g'ri foydalanish kerakligi haqida sinfdoshlaringizga gapirib bering.
- «Mahmadonalik» degand nimani tushunasiz? Bu qanday illat? Uning oqibatlari haqida so'zlab bering.

2. Moslarini topib birlashtiring. Hikmatlarni izohlab bering.

Nafs deb

Umrbod xorlikda
qolgan

El e'tiboridan
qolgan o'g'ri,

Johil judo qilar,
oqil ahil

Johilda jahlu,
oqilda aql,

Pushaymonlik ti'g'i
bilan kesiladi

Hirs va ochko'zlik
zanjiriga
bog'langan bo'yin

odamlar e'tiboridan
qolish yomon

3.




Noyob insoniy fazilatlarga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

- 1) Noyob insoniy fazilatlarga misollar keltiring.
- 2) Bu fazilatlarning zararli xulq va odatlar bilan qarama-qarshi tushunchalar ekanligini tushuntirib bering.
- 3) Prezidentimizning ushbu fikrini izohlab berishga harakat qiling.



4. Bo'sh kataklarga mos harflarni yozib krossvordni to'ldiring. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Eniga hosil bo'lgan so'zga izoh bering.



17. NAFSNI YENGISH ZARURATI

17-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:




- Rasmlarning farqi nimada? Siz ulardan qay birini tanlar edingiz? Nima uchun?
- «Nafs» deganda nimani tushunishingizni yozing.

- «Badnafslilik» qanday illat? U insonda qanday paydo bo'ladi?
- «Har bir narsada me'yor bo'lishi kerak» degan gapni eshitganmisiz? Bu gapni qanday tushunasiz?
- Me'yoridan ortiq ovqat yeyish kishi sog'lig'iga qanday ziyon yetkazishini yozing.

- «Nafsnı yengish zarurati» iborasini izohlab bering.



2. Rebusni yeching. Hosil bo'lgan ibratli iborani izohlab bering.




3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Inson nafsini _____ bilan boshqara olganda u jamiyat uchun foydali shaxsga aylanadi.
- 2) _____ – bu nafsga erk berib yaxshi taomlarga o'ch bo'lish, mol-dunyo to'plashga berilish.

3) Ochko'z odamlarda yaxshilik qilish xislati zaiflashadi, uning o'rnini _____, berahmlik egallaydi.

4) Inson boriga _____ asosida nafsini tiyishi, jilovlashi, tartibga solishi zarur.

Foydalanish uchun so'zlar: qanoat qilish, aql, nafs, ochko'zlik.

 4. Quyidagi ibratli gaplarning muallifi yoki manbasini ostiga yozing. Ularni izohlab bering.

1) Mening nafsım balodur,
Har maqomga salodur.

2) Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur.

3) Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,
Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.

 5. «Nafsni tiyish odobdandir» mavzusida hikoya yozing.

18. ISTIQLOL BERGAN BUYUK NE'MATLAR

18-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- «O'zlikni anglash» deganda nimani tushunasiz?
- «Istiqlol» so'zlarining ma'nosi nima? Unga ma'nodosh so'zlarni yozing. _____

- «Istiqlol bergan buyuk ne'matlar»ga misollar yozing.


- Yuqorida rasmlari berilgan buyuk bobokalonlarimizning ismlarini yozing. _____

- Bu ulug' ajdodlarimizning qanday nasihatlari, ibratli so'zlarini bilasiz?
- Ularning mustaqillik tufayli nomlari qayta tiklanib, ma'naviy meroslari hurmat bilan o'rganilayotgani haqida gapirib bering.

2. Sxemani to'ldiring.

Mustaqillik tufayli nomlari tiklangan buyuk ajdodlarimiz





3. Ushbu fikr muallif nomini yozing va uni izohlab bering.

«Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa, o'zlikni anglash mumkin emas».



4. Savollarga javob yozing.

1) «Ma'naviy meros» deganda nimani tushunasiz? _____

2) Vatanimizdagi qaysi tarixiy obidalarni bilasiz?

3) Ularning kelib chiqishi va o'tmishi haqida nimalarni bilasiz? _____

4) Bu obidalarining qaysilari istiqlol tufayli qayta tiklandi? _____

5) Mustaqillik yillarida qaysi buyuk bobolarimiz sharafiga yodgorliklar qurildi? _____


19. TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

19-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- «Muzey» nima? _____
- Muzeylarga borishdan maqsad nima?
- Rasmda qaysi muzey tasvirlangan? _____
- «Muzey eksponatlari» deganda nimani tushunasiz?
- Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi eksponatlar qaysi davrga xosligini yozing. _____
- Muzeydagi tarixiy dalillar bizga nimalarni eslatib turadi?
- Siz bu muzeyga borganmisiz yoki televizor orqali ko'rganmisiz?
- Bu muzey haqida bilganlaringizni gapirib bering.



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ Davlat muzeyi 1996-yil 18-oktabrda ochildi.
- 2) Muzey _____ shahrida joylashgan.
- 3) Muzeyning salobatli _____ i, ustunlari unga ko'rk berib turadi.
- 4) Temuriylar tarixi davlat muzeyi _____ dan iborat.
- 5) Muzey binosi podsholar boshidagi _____ ni eslatadi.

Foydalanish uchun so'zlar: Toshkent, Temuriylar tarixi, uch qavat, toj, moviy gumbaz.



Buyuk bobolarimiz xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi.

- 1) Sohibqiron Amir Temur bobomizning fazilatlarini yozing. _____

2) Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo etilishiga mustaqillik sababchi ekanligini tushuntirib bering.



4. Temuriylar Tarixi Davlat Muzeyi uch qavatdan iborat. Har bir qavatga joylashgan narsa va xonalarni joylashgan qavatiga qarab to'g'ri raqamlang.

Qadim zamonlarga borib taqaluvchi eksponatlar

Temuriylar davri kulolchilik eksponatlari

Temuriylar davri misgarchilik eksponatlari

Xazinaxona

Kutubxona

Ma'muriyat

Majlislar zali

Devorga ishlangan A.Temur va uning vorislarining tasviri

Temuriylar davri kulolchilik

Temuriylar davri memorchilik eksponatlari

Temuriylar davri zargarlik eksponatlari

20. AJDODLAR XOTIRASIGA HURMAT 20-DARS



- ?** 1. Savol va topshiriqlar:
- Rasmlardagi obidalarning nomini yozing. _____
 - _____
 - 1 – 2 – rasmdagi qadamjolar haqida bilganlaringizni gapirib bering. Ular kimning tashabbusi bilan bunyod etilganini yozing.
 - Ajdodlar xotirasiga hurmat deganda nimani tushunasiz?

- Siz rasmdagilardan tashqari yana qanday ulug' bobokalonlarimizning haykallari, ularning xotirasiga bag'ishlab qurilgan obidalarni bilasiz. _____

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ doimiy ravishda almashinib turadi, kattalar o'rnini _____ egallab kelaveradi.
- 2) Bizdan oldin o'tganlarni _____ deymiz.
- 3) Ajdodlarni _____ xalqning kelajagi porloq bo'ladi.
- 4) _____ o'z sodiq farzandlarini unutmaydi.

Foydalanish uchun so'zlar: ajdodlar, unutmagan, xalq, avlodlar, yoshlar.

3. Savollarga javob yozing.

- 1) Muhtaram Yurtboshimizning bevosita ta-shabbusi bilan 31-avgust kuni qanday nomlanganligini yozing. _____

- 2) Shahidlar xotirasi maydoni haqida bilganlaringizni yozing. _____

3) Mustaqillik uchun jonini fido qilgan vatandosh ajdodlarimizdan bilganlaringizni yozing. _____



«Biz bugun shu tabarruk ziyoratgohda turib, ozod va erkin Vatan uchun jon bergan shahidlar ruhi oldida bosh egib, ularga o'z hurmat-ehtiromimizni bajo keltiramiz.

Vatanimiz o'g'il va qizlari bu tabarruk insonlar qoldirgan merosni o'rganadilar va ularning nomini qalblarida doimo saqlaydilar».

- 1) Prezidentimizning ushbu so'zlarini tushunib oling.
- 2) Prezidentimizning yoshlarga bergan shunday ishonchlarini oqlash uchun nimalar qilish zarur deb o'ylaysiz?



5. Sxemani to'ldiring.

Mustaqillik yillarida istiqlol uchun jonini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlab qilingan ishlar

21. ZIYORAT ODOBI

21-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmdagi ziyoratgohlarning nomlarini yozing. _____

- Bulardan tashqari bilgan ziyoratgohlaringizning nomlarini yozing. _____

- Ushbu ziyoratgohlarning qad ko'tarishida mustaqillikning o'ri haqida gapirib bering.

- Ziyoratgohlarga borganda nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida o'rtolaringizga so'zlab bering.

2. «Ziyorat» so'ziga berilgan ikki ta'rifni yozing.

ZIYORAT

3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ tufayli ko'pdan – ko'p muqaddas ziyoratgohlar yana qaytadan obod qilindi.
- 2) Muqaddas islom dinining an'analariga ko'ra, ziyoratgohlarga kishilar poklanib, _____ olib borishadi
- 3) Ziyorat marosimlarida _____ oyatlari, ko'pincha _____ surasi o'qiladi.

Foydalanish uchun so'zlar: Qur'on, ziyorat, mustaqillik, tahorat, Fotiha.



4. Sxemani to'ldiring.

Ziyoratgohlarda odobsizlik sanalgan quyidagi xatti-harakatlardan tiyilish lozim

*baland ovoz bilan
qah-qah otib kulish*



5. Ziyoratgohlarni asrab-avaylash burchimiz ekanligi haqida o'z fikringizni yozing.

22. YURT TINCHLIGI

22-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- «Yurt tinchligi – oliy neʼmat» degan iborani sharhlab bering.
- Siz Vatan tinchligini mustahkamlash uchun qanday ishlarni amalga oshiryapsiz?
- Yurtimizning tinchligini mustahkamlashda Vatanimiz mustaqilligining oʻrni beqiyos ekanligi haqida gapirib bering.

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Biz nafaqat yurtimizda, balki _____ da tinchlik bo'lishini istaymiz.
- 2) Bir mamlakatda bo'lib turgan _____ boshqa mamlakatlar tinchligiga ham _____ soladi.
- 3) Milliy mafkuramizning asosiy g'oyalardan biri ham – _____.
- 4) Tinchlik _____ yo'ldoshidir.

Foydalanish uchun so'zlar: raxna, notinchlik, farovonlik, yurt tinchligi, butun dunyo.



Insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri — bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdan iborat.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini izohlab berishga harakat qiling.
- 2) Tinch yashash huquqi davlat tomonidan kafolatlanishini qanday tushundingiz?
- 3) «Yurt tinchligi barcha ezgu ishlarning boshi» deb aytsak bo'ladimi? Tinchlik bo'lmasa ezgu amallarni bajarish mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.



4. Moslarini topib birlashtiring va gaplarni izohlab bering.

Tinch elning

farovonlik
yo'ldoshidir

Yurt tinchligi –

Tinchlik topishtirar

Tinchlik

bog'i gullar

Urush ayirar

ulkan boylik



5. «Yurt tinchligi» mavzusida qisqacha o'z fikringizni yozing.

23. MILLATLARARO TOTUVLIK

23-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- «Millatlararo totuvlik» deganda nimani tushunasiz?
- «Millatlar, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik umumbashariy taraqqiyot kalitidir» degan fikrni qanday izohlaysiz?
- Millatlararo totuvlikni yo'lga qo'yuvchi, mustahkamlovchi omillarni yozing. _____
- Davlatlar o'rtasidagi qaysi sohalardagi hamkorliklarni bilasiz? Ularga misol keltiring.

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Kelajagi buyuk O'zbekiston _____
diyordir.
- 2) O'zbekistonda _____ dan ortiq millat
va elat yashaydi.
- 3) Yurt farovonligi, osoyishtaligi unda yashay-
digan insonlarning o'zaro _____ ligi, bir-
birlariga _____ i, mehr oqibatidadir.
- 4) Millatlararo totuvlik g'oyasi _____ mizning
asosiy g'oyalaridan biridir.

Foydalanish uchun so'zlar: bir yuz o'ttiz, ahil, milliy mafkura, ko'p millatli, hurmat.

3.





Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog'liqdir.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini izohlab berishga harakat qiling.
- 2) Nega Prezidentimiz davlatlarning bir-birlari bilan o'zaro aloqa qilishini, millatlar-aro totuvlikni mustahkamlash haqida jon kuydirib gapirmoqda?




4. Bo'sh kataklarga mos harflarni yozib krossvordni yeching. Bo'yiga hosil bo'lgan so'zlarni izohlang. Eniga hosil bo'lgan iboraning mazmunini yozing.





5. Sxemani to'ldiring.



24. OILA — MUQADDAS QO'RG'ON

24-DARS



1. Savol va topshiriqlar:


- Nima uchun oilani muqaddas deb ta'riflashadi?
- Oila muqaddasligini ko'rsatuvchi misollar yozing.

- Qut-baraka deganda nimani tushunasiz?
- Oiladagi baraka nimalarga bog'liq ekanligini yozing. ___

- Oila farovonligi oila a'zolariga bog'liqligi haqida gapirib bering.

2. Sxemani to'ldiring.

**Inson turmushining farovon bo'lishi uchun
zarur insoniy xislatlar**



3. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ xosiyatli oilalarga in qo'yadi.
- 2) _____, _____ xonadonni qushlar ham sevadi, unga talpinadi.
- 3) Oilaning fayzli, farovon bo'lishi _____ga bog'liq.
- 4) Oilamizdagi keksalar _____, _____ ustozlardir.

5) O'zbekistonda _____ ga katta e'tibor berilmoqda.

Foydalanish uchun so'zlar: osoyishta, qaldirg'ochlar, fayzli, maslahatgo'y, oila a'zolari, oila, dono.

4. Prezidentimiz tomonidan yillarga nom berishda ham birinchi galda oilalarga ahamiyat berilmoqda. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Yil	Nomi
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____

25. MILLIY MEROS NIMA?

25-DARS




1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmlardagi tarixiy obidalarning nomini va haykallari berilgan bobolarimizning ismini yozing. _____

- Meros deganda nimani tushunasiz?
- O'tmishdagi ajdodlarimiz bizga qanday meros qoldirgan?

- Milliy meros tushunchasini sinfdoshlaringizga tushuntirib bering.
- Yana qanday milliy merosimiz sanalgan tarixiy obidalarni bilasiz?

2. Sxemani to'ldiring.



3. Mustaqillik yillarda milliy merosimizni asrab-avaylash borasida qilingan xayrli ishlar xususida yozing

4. Moslarni topib, mos ranglarga bo'yang.

Milliy meros

Tarixiy meros

Ma'naviy meros

Madaniy meros

Xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, marosimlari, an'analar, bayramlari, qadriyatlar, diniy e'tiqod va udumlari.

Xalq yaratgan va ajdodlardan avlodlarga qoldirilgan boyliklar.

Til, adabiyot, san'at asarlari, kiyinish madaniyati, urf – odat, an'ana qadriyatlar, ilm-fan sohasida yaratilgan tadqiqotlar, kitoblar, kashfiyotlar, ishlanmalar, ixtirolar, yangiliklar.

Mamlakat hududidagi qadim shaharlar yoki ularning qoldiqlari, arxeologik qazilmalar orqali topilgan qadimiy buyumlar, san'at asarlari, ishlab chiqarish qurollari, eski zamonlarda yaratilib hozirgacha saqlanib qolgan me'moriy obidalar.

26. BEBAHO YODGORLIK

26-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmda qanday obida tasvirlanganini yozing.

- «Avesto» qanday qo'lyozma? Uni qadrlashimizning boisi nimada?
- Ushbu kitob qachon paydo bo'lganligini yozing.

- Bu kitobda nimalar haqida yozilgan? Kitobdagi bosh g'oyani yozing. _____
- Ushbu tarixiy merosni asrab-avaylash, buning uchun turli inshootlar barpo etishning boisi nimada deb o'ylaysiz?
- «Avesto» dagi hikmatli so'zlardan aytib bering.

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Zardushtiylik dinining asoschisi bo'lmish _____ buyuk tarixiy shaxsdir.
- 2) Zardusht yagona xudo – _____ni targ'ib etadi.
- 3) Zardushtning yaxshi orzu-istaklari tufayli «_____» kitobi yaratildi.
- 4) «Avesto» sof diniy kitob bo'lmay, unda _____, _____, _____ haqida ham qimmatli ta'limotlar berilgan.
- 5) «Avesto» _____ kitobdan iborat.

Foydalanish uchun so'zlar: Ahuramazda, ilm-fan, Avesto, madaniyat, Zardo'sht, yigirma bir, odob-axloq.



3. «Avesto»ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin.

- 1) «Avesto» yodgorligi qayerda joylashgan? Uning mohiyati haqida gapirib bering.
- 2) Prezidentimizning yuqoridagi fikrini izohlab berishga harakat qiling.
- 3) «Avesto» kitobidagi bosh g'oya haqida to'liqroq ma'lumot bering.

4) Yurtimizda ushbu muqaddas kitobning necha yilligi tantana qilindi? _____

5) Ushbu kitobdagi ta'limot bizni ezgulikka boshlar ekan, uni o'rganib, asrab-avaylashimiz burchimiz ekanligi haqida o'z fikringizni bildiring.

4. Moslarini topib birlashtiring va Avestodagi axloq – odobga doir hikmatlardan namunalarni to'ldiring, ularni izohlab bering.

eng yaxshi va go'zal
mamlakat deb
tushunmog'i kerak

Har bir inson o'zi
o'sib-ulg'aygan
zamini – mamlakatni

tilanchilar
qatorida o'ladi

Vatanning

Mehnat qilmay-
digan odam

tutuni ham
shirin

27. EZGU FIKR, EZGU SO‘Z, EZGU ISH

27-DARS



1. Savol va topshiriqlar:

- Siz uyda, mahallada qanday ezgu ishlar qilishga harakat qilasiz? Mahalla tozaligiga qanday hissan-gizni qo'shasiz?
- Ushbu «da'vat» qaysi kitobning bosh g'oyasi ekanli-gini yozing. _____
- «Insonlarga yaxshilik qilish savobdir» degan gapni qanday izohlaysiz?
- Siz qanday ezgu ishlarni qilishga intilasiz? Ularni amalga oshirganingizda ko'nglingizdan nimalar kechadi? Beixtiyor xursand bo'lib ketasizmi?



2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

1) Ezgulik – _____ demakdir.

2) Yaxshi ishlar haqida fikrlash, uni yaxshi so'zlar bilan bayon etish insonga _____ va _____ keltiradi.

3) Yaxshilikning teskarisi _____, ya'ni _____ dir.

Foydalanish uchun so'zlar: yovuzlik, shonshuhrat, yomonlik, baxt, yaxshilik.



Ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda.

1) «Yuksak ma'naviyat» deganda nimani tushunasiz.

2) Xalqimizga xos fazilatlarni aytib bering.

3) Prezidentimizning yuqoridagi fikrini mantiqan izohlab berishga harakat qiling.

4) Yuksak ma'naviyat egasi bo'lish uchun intiladigan, buni o'ziga shior qilib olgan kishilar jamiyatimizning bebaho boyligi ekanligini asoslab berishga harakat qiling.

4. Moslarini topib birlashtiring va Zardusht nasihatlarini to'ldiring. Ularni izohlab berishga harakat qiling.

Tug'ilgandek pok bo'lmoq

hayoti qiyinchilikda o'tadi

Hozir yomonlik va yaxshilik o'rtasida ikkilanib turgan kishi qiyomat kunida

u abadul-abad farog'atda yashaydi

Bordi-yu inson hayoti ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishlar bilan o'tgan bo'lsa,

tiriklikda buyuk ishdir

Kimki itni ursa,

yaxshilik uchun ham, yomonlik uchun ham javob beradi

Haqiqat

eng oliy ne'mat

28. BAYRAMLARIMIZ

28-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmdagi bayramlar nomlarini yozing. _____

- Umumxalq bayrami deganda nimani tushunasiz?
- Bayramlarning qay tarzda nishonlanishi haqida gapirib bering.

- Navro'z bayramida qanday taomlar pishirilishini yozing. _____
- 9-maydagi bayramning nomini yozing va uni tushintirib bering. _____

2. Jadvalni to'ldiring

Bayram nomi	Nishonlanadigan kuni
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____




3. Savollarga javob yozing.

- 1) Bizdan boshqa mamlakatlarda ham nishonlanadigan bayramlarni yozing. _____

- 2) Mamlakatimizda umumxalq bayrami hisoblangan nechta bayram bor? _____
- 3) Yurtimizda umumxalq bayramlaridan tashqari yana qanday bayramlar nishonlanadi?
- 4) Yurtimizda o'qituvchilar va murabbiylar kuni qachondan beri nishonlanib kelinmoqda?
- 5) Bayramlarning vazifasi nimadan iborat deb o'ylaysiz? _____



4. Sxemani to'ldiring.



29. BOBOLARIMIZ, MOMOLARIMIZ KUYLAGAN QO'SHIQLAR

29-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Bobolarimiz, momolarimiz kuylagan qo'shiqlardan bilganlaringizni yozing. _____

- Bu qo'shiqlar ma'no-mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linishini yozing. _____

- «Kuy, qo'shiq – insonni ezgulikka yetaklaydi» degan gapni izohlab bering.

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) Qo'shiq atamasi turkiy «_____» fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylashni anglatadi.
- 2) Insonning ko'ngil kechinmalarini o'zida aks ettiradigan qo'shiqlar _____ deyiladi.
- 3) _____ida mehnatkash xalqning ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi aks etadi.
- 4) Qo'shiq kishi _____ini yumshatadi, _____ sari yetaklaydi, ba'zan ayrim muammolarning yechilishiga ham sabab bo'ladi.

Foydalanish uchun so'zlar: qalb, qo'shmoq, xalq qo'shiqlari, ezgu ishlar, lirik qo'shiqlar.

3.



Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini mantiqan izohlab berishga harakat qiling.
- 2) Musiqa asboblarning ahamiyati va musiqi sadolarining kishi kayfiyatiga ta'siri haqida gapirib bering.
- 3) Yurtimizda san'atga katta ahamiyat berilayotganining boisi nimada deb o'ylaysiz? Qanday qo'shiq bayramlarini bilasiz?

30. MUSIQA MADANIYATI

30-DARS



? 1. Savol va topshiriqlar:

- Rasmdagi bolalarning qaysi biri musiqa tinglash odobiga rioya qilmoqda? Qaysinisi aksincha?
- «Musiqqa madaniyati» deganda nimani tushunasiz? Musiqaning ahamiyati nimada?
- Inson qanday vaziyatlarda musiqa eshitishini yozing. _____

- Qanday musiqalarni yoqtirasiz?
- Musiqqa eshitish odobi haqida gapirib bering.

2. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ushbu gaplarning ma'nosi haqida gapirib bering.

- 1) _____ ning inson hayotida tutgan o'рни beqiyos.
- 2) Musiqa ta'sirida qalbingizning tub tubida yotgan _____ jonlanib, to'lqinlanib ketasiz, beixtiyor _____ ingiz ko'tariladi.
- 3) Kuyни _____ dan his eta bilish kerak.
- 4) Musiqaga mehr qo'ygan kishi uning _____ iiga yetadi.
- 5) Musiqani _____ o'tirib tinglash kerak.

Foydalanish uchun so'zlar: jim, yurak, musiqa, his-tuyg'ular, kayfiyat, yurakdan.

3.



Kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

- 1) Prezidentimizning ushbu fikrini mantiqan izohlab berishga harakat qiling.
- 2) Musiqa tinglashning ahamiyati nimada?
- 3) Musiqa tinglash odobini shakllantirishda oilaning ro'li qanday bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

4. Moslarini topib birlashtiring va gaplarni izohlab bering.

Musiqa tinglaganda

o'ta odobsizlik
sanaladi

To'y-hasham,
mehmondorchilikda
musiqa tinglaganda

o'ta madani-
yatsizlikdir

Konsertlarga borganda
shovqin solib, hushtak
chalish

o'ziga xosligi
bilan dunyo
san'ati orasida
ajralib turadi

Xonadonlarda
musiqa tinglaganda,

baland ovozda
qo'yib, qo'shnilar
oromini buz-
maslik kerak

Ko'chalarda pleyer
ovozini baland qo'yib,
qo'shiq tinglash

ovqatga berilib
ketmaslik kerak

O'zbek milliy
musiqasi

san'atkor va
atrofdagi kishilar
hurmatini saqlash
lozim

MENING LUG'AT-MA'LUMOTNOMAM

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

- _____ - _____

«ODOBNOMA»
o'quv-metodik qo'llanma

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
4-sinfi uchun

Toshkent – «Yangiyo'l poligraf servis» – 2013

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011 y.

Muharrir – J. Azimov
Texnik muharrir – M. Riksiyev

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 08.10.13.
Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. «Arial» garniturasida.
Ofset bosma usulda bosildi. Bosma tabog'i 6,0.
Nusxasi 50 000. Buyurtma № 52.

«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.